

Zamonaviy o'qituvchida kreativlikning ahamiyati

Qashqadaryo Viloyati Kaspi tumani

2-maktab boshlang'ich ta'limgan

o'qituvchisi Xodjayeva Shaxnoza

Annotatsiya: Bugungi kun talabiga mos malakali kadrlarni tarbiyalashda o'qituvchi shaxsiga yuqori o'rinda mas'uliyat yuklatilgan. O'qituvchi shaxsida kreativlik, izlanuvchanlik , yaratuvchanlik malakalarining mavjud bo'lishi raqobatbardosh kadrlar yetishib chiqishida muhim ahamiyatga ega.

Tayanch tushunchalar: kreativlik, norma, tajriba, jamiyat, zamonaviy o'qituvchi, ko'rgazma.

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov o'z nutqlarida yoshlarga katta ishonch bildirib, O'zbekiston kelajagi yoshlar qo'lida ekanini ta'kidlar ekanlar, avvalo yoshlarni shunday ishonchga javob bera oladigan insonlarqilib yetishtirish o'qituvchi va tarbiyachilarining fidokorona mehnati bilan bog'liq ekanligini nazarda tutganlar. Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk , komil insonni tarbiyalashda ta'limgan va tarbiya masalalariga to'xtalganda o'qituvchini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Zamonaviy o'qituvchiga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi. Bolalarni kuzatish , ularni o'sishidagi muhim xususiyatlarni jamiyatda vujudga kelgan asosiy g'oyalar bilan taqqoslash , ularni rivojlanish yo'llari va usullarini aniqlash turli vositalar , tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarining o'zaro bir-biriga o'tishi , deliktikasini chuqur tahlil qilish , pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir sistemaga solish malakalari zarur bo'ladi. Insonarvar pedagog bolalarni bilim bilan tanishtirayotganda ayni vaqtda ularga o'z ta'sirini o'tkaza oladi va shu jarayonda ularning diqqatini jamlay oladigan, charchoq holatga keltirmaydigan smarali usul va metodlarni ishlab chiqqa oladi.

Bugungi zamon talabiga mos keluvchi o'qituvchining ajralib turuvchi xususiyatlardan biri-uning kreativligidir. Har tomonlama fikrlesh , yangi dars samaradorligini oshiruvchi metodlarni o'ylab topish kreativlikning yorqin isboti desak mubolag'a bo'lmaydi. Kreativlikni o'quvchilarda rivojlantirishda ularning qiziqish va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda bir masalaning mohiyatini ochib berish, uning yechilish yo'llarini tushuntirib berish kerak. Bitta fikrga teskari fikr va bu fikrning isbotini topa olish kreativlikning boshlanish ildizlaridan biridir.

Kreativlik (lotincha , create-yaratish, creative-yaratuvchi, ijodkor) – individning ongli ravishda yangi bilimlarni ishlab chiqish , yaratish uni ommaga tadbiq qila olish qobiliyatidir. Kreativlikning mavjudligi shaxsning tafakkurida, muloqot jarayonida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Rivojlangan mamlakatlarda o'qituvchilar va barcha soha mutaxassislari o'zlarida kreativlik sifatlari mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo'ladi. O'qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini tashkil ettirish natijasida darslarning samaradorligiga hissa qo'sha oladigan pedagogik kadrlar bugungi kun o'qituvchisi talablarini bajara oladi. Buning uchun avvalokadr Kasbiy yetuklikka erishgan bo'lishi kerak. Kasbiy yetuklik insonning mutaxassisning o'zini o'zi rivojlantirish hamda kasbiy faoliyatning yakunigacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi.Ma'lumki kasbiy tajriba bilim, ko'nikma, malaka va tayanch hamda fanga oid kompetensiyalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq kasbiy ijodiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarining integratsiyasi , mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etishusulva vositalarini ishlabchiqisni emas, balki shu qatorda kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish , ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarning yetarli darajada o'rganilganligini talab etadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi shaxsning o'zaro mos holatda ijodiy faoliyat va ijodiy maxsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida qaralishi mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi shaxsning shakllanishiga bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi omillarga bog'liq.

Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi yosh kadrlarning ilmiy salohiyatining yanada yuksalishi, ularning jahon standartlariga mos tarzda bilimolishi hamda raqobatbardosh kadrlardan bo'lib shakllanishiga bevosita va bilvosita hissa qo'shadi.

O'qituvchining dars jarayonida har bir o'quvchiga ta'sir ko'rsatishi uhun imkoiyat bor. O'quv faoliyatining boshlanish jarayonida bolaning kattalar va tengdoshlari bilan qiladigan muomalava munosabatlari yangicha tus ola boshlaydi. Chunki o'qituvchi bolaga ota-onaga nisbatan ko'proq ravishda normativ talablar qo'yadi. Bu esa o'qituvchining boladagi psixologik holatlarni o'zgartira olishini anglatadi. Mashxur olim Beruniy o'qituvchiga o'quvchini zeriktirmaslikni, o'tiladigan mavzuni qiziqarli va ko'rgazmali holda bo'lishi lozimligini maslahat beradi. "Hindiston" asarida esa olimlar ilm ahllarini hurmat qilishga chaqiradi. Bularni kishilar ayniqsa, hukmdorlar hurmat qilsa, ularga o'z o'rnila baho bersa, ilmlar ko'payadi, demak jamiyat iqbolli bo'ladi. Shunday ekan zamonaviy o'ituvchiga qo'yiladigan talablar shakllanishida yoshlarning bilim olishi boy tajribaga ega bo'lishi uchun qulay imkoniyatlar yaratish zarur.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi „Talim to'g'risida”gi qonuni.
2. Said Axmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya
3. Toshkent, 2003
4. O'zbekiston Respublikasi „Kadrlar tayyorlash Milli dasturi”.
5. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. T. O'qituvchi 1997y.
6. www.edu.uz